



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

INGLIZ TILIDAGI AGROMATNLARDA DEYKSISNING GROUNDING NAZARIYASI ASOSIDAGI TAHLILI

Bozorova Munisa

*Samarqand davlat chet tillar instituti, Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrası
o'qituvchisi*

Annotatsiya

Mazkur maqola kognitiv tilshunoslikdagi grounding nazariyasi asosida ingliz tilidagi agromatnlarda deyksis hodisasining tahliliga bag'ishlangan bo'lib, bunda grounding nazariyasi tasnifi va uning pragmalingvistikadagi deyksis hodisasi bilan aloqadorligi, mazkur sohada izlanishlar olib borgan olimlarning xulosalari asosida ularning nazariy asoslari ingliz tilidagi agromatnlarda nominal hamda miqdoriy groundingni ifodalanishi misollar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: deyksis, agromatn, kognitiv tilshunoslik, grounding nazariyasi, diskurs.

АНАЛИЗ ДЕЙКСИСА В АНГЛОЯЗЫЧНЫХ АГРОТЕКСТАХ НА ОСНОВЕ ГРАУНДИНГ-ТЕОРИИ

Бозорова Муниса

*Самаркандский государственный институт иностранных языков,
преподаватель кафедры теории и практики английского языка*

Аннотация

Данная статья посвящена анализу явления дейксиса в англоязычных агротекстах на основе теории grounding в когнитивной лингвистике, при этом классификация теории grounding и её связь с явлением дейксиса в прагмалингвистике, а также теоретические основы на основе выводов учёных, проводивших исследования в данной области, проанализированы на примерах выражения номинального и количественного grounding в англоязычных агротекстах.

Ключевые слова: дейксис, агротекст, когнитивная лингвистика, теория grounding, дискурс.

A GROUNDING-THEORY-BASED ANALYSIS OF DEIXIS IN ENGLISH AGRICULTURAL TEXTS

Bozorova Munisa

*Samarkand State Institute of Foreign Languages, Lecturer, Department of English
Language Theory and Practice*

Abstract

This article is aimed at analyzing the phenomenon of deixis in English agricultural texts based on the theory of grounding in cognitive linguistics, in which the classification of grounding theory and its connection with the phenomenon of deixis in pragmalinguistics, based on the conclusions of scientists who have conducted research in this field, their theoretical foundations are analyzed using examples of the expression of nominal and quantitative grounding in English agricultural texts.

Keywords: deixis, agricultural texts, cognitive linguistics, grounding theory, discourse.

Kognitiv lingvistikaning asosiy tadqiq obyekti sifatida kognitiv faoliyat sifatidagi til qatnashadi, zero til “bilishning ajralmas qismi bo‘lib, madaniy, psixologik, kommunikativ va funksional faktorlarning o‘zaro aloqasini aks ettiradi”[Kravchenko 2004:37]. Violi bu haqida shunday deydi: “Idrok, harakat, tilni to‘lig‘icha avtonom va mustaqil modullar sifatida ko‘rib chiqish mumkin emas, ular umumiy yagona konfiguratsiyada funksional xususiyatlarga aylanishi lozim”[Violi 2003:201]. Ularning barchasi bilishda birlashadi. Ammo bilishning o‘zi turli xil “spetsifikatsiyalar” yoki qobiliyatlardan iborat bo‘lganligi sababli, tilshunoslikdagi kognitiv yo‘naltirilgan paradigma bir tomondan kognitiv psixologiya va falsafadagi kuchli oqimlarga asoslangan ko‘plab turli va kuchli yo‘nalishlardan tortib diskursni o‘rganuvchi pragmatika, sotsiolingvistika va psixolingvistika kabi lingvistik fanlardan iborat bo‘lishi ajablanarli emas [Ibáñez 2005:7]. Pragmalingvistikaning tadqiqot obyekti hisoblangan deysis hodisasining kognitiv lingvistikadagi o‘rganilish jarayonida deysis olimlar tomonidan turlicha izohlanadi. Kognitiv grammatikaning asoschisi bo‘lgan Langakerning ishlarida tilning kognitiv jarayonlar bilan qanday bog‘liqligini o‘rganadi va tilning inson fikrlashiga qanday ta’sir qilishi tahlil qilinadi. U tilni kognitiv jarayonlarning bir qismi sifatida ko‘rib chiqadi va shu asosda kognitiv tilshunoslikdagi grounding nazariyasiga asos solgan. Agromatnlarda deysis hodisasining grounding nazariyasi asosidagi tahlili haqida mazkur maqolada misollar yordamida ifodalanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Deyktik belgilarni kognitiv tahlildagi “grounding theory” ya’ni nazariy asoslash orqali bir qancha olimlar tahlil qilishgan bo‘lib, ular sirasiga F.Brizard, T.Janssen, R.Lauri, R.Epshteyn kabi kognitiv tilshunoslik vakillari kiradi [Brisard 2002]. Langakerga ko‘ra tilning ma’nosi va tushunchalari real dunyo tajribalari va kontekst orqali shakllantiriladi [Langaker 2008:11]. F.Brizard tilni inson ongi va bilish jarayonlari bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Til orqali insonlar o‘z bilimlarini almashadi va voqelikni tushunadi. Til kommunikatsiyada intersubektivlikni ta’minlaydi, ya’ni gapiruvchi va tinglovchi o‘rtasida umumiy tushuncha shakllanadi [Brizard 2002:145]. Kognitiv tilshunoslikdagi subyektivlik va obyektivlik haqida munosabat bildirgan Langakerning fikriga ko‘ra, gapiruvchining shaxsiy fikri yoki hissiyoti bilan voqeani tasvirlaydi yoki neytral ifodalaydi. U yana bir maqolasida subyektivlik implisit ravishda ifodalanishga moyil bo‘ladi, sababi eksplitsit ifodalangan ma’lumotlar ko‘proq obyektiv xarakterga ega bo‘ladi deya ta’riflaydi. Groundingni bir vaqtning o‘zida ochiqchasiga namoyon qilib ham maksimal subyektivlikni talqin qilib bo‘lmaydi [Langaker 2002:15] Bu haqida o‘z fikrini bildirgan F.Brizard ham gapiruvchining shaxsiy nuqtayi nazar grammatik vositalar orqali gapda namoyon bo‘ladi va bu til birliklari orqali ma’lumotning qanday yetkazilishini va tinglovchiga qanday ta’sir qilishini belgilaydi deya ta’rif bergan. U groundingning insonning bilish jarayonlari (epistemik) bilan aloqasini o‘rganadi va gaplarning ma’nosi gapiruvchi va tinglovchining bilimlari, e’tiqodlari va tajribasiga qanday bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi [Brizard 2002]. Lauri diskurs tahlilida groundingning rolini ta’kidlaydi. Nutq davomida ishtirokchilar o‘rtasida umumiy tushuncha va referensiyalar shakllanadi. Bu jarayon orqali ma’lumotlar almashinuvi osonlashadi va diskursning ravonligi ta’minlanadi. Mazkur maqolada biz ingliz tilidagi agromatnlarda deyktik vositalarning grounding nazariyasiga ko‘ra matndagi o‘rni va ahamiyati aniqlash uchun ingliz tilidagi ilmiy maqolalardan, o‘quv adabiyotlaridan foydalandik. Tahlil jaryonida misollarni tasniflash, guruhlash, deskriptiv tahlil usullaridan foydalandik.

Natijalar. Ingliz tilidagi agromatnlarda ishlatilgan deyktik vositalar grounding nazariyasi asosidagi tahliliga ko‘ra ular bir qancha vaziaflarni bajaradi. Agromatnlarda mualliflar tadqiqot obyektni tanishtirish jarayonidagi ba’zi ma’lumotlarni aniq ekanligini bildirish maqsadida “the” artiklidan (2) foydalanishlari mumkin. Biroq “a” artikli (1) agromatnlarda miqdorni bildiruvchi ko‘rsatkich sifatida qo‘llaniladi. Qiyin bo‘lgan atamalarining takrori o‘quvchini asosiy ma’lumotlarni anglashiga to‘sqinlik qilishi mumkinligini anglagan holda mualliflarning “this” yordamida eslatishi (3) uning tizimli ma’lumot sifatida qabul qilinishini ta’minlaydi. Muallif o‘zi avvalroq bergan ma’lumotning ishorasi uchun “that” (4) dan foydalansa, tadqiqot mualliflari bir

nechtani tashkil qilganida ham

yoki yakka muallif ilmiy izlanish olib borgan bo'lsa ham “we-our” (5) (6) shaklida mualliflikni berish qolaveradi. Miqdoriy grounding elementlari “most”, “all” (7) (8) shaklida namoyon bo'ladi. Ingliz tilidagi agromatnlarda “here” deytik birligining diskurs deysisi sifatida kelishi ko'plab uchraydi, ularning makonga ishora qilish holatlari juda ham ozchilikni tashkil qiladi hamda ma'noning chegaralanganligini ifodalaydi. Nominal grounding va deysis orqali til foydalanuvchilari ma'noni konseptual model sifatida shakllantiradi. Bu model nutq vaziyatiga mos ravishda o'zgaradi va yangilanadi.

Muhokama. Grounding elementlari tabiatan deytikdir, chunki ular groundingning ba'zi qirralari ayni bir birikma yoki jarayondagi vaziyat o'rtasidagi munosabatni belgilaydi [Langaker 2002:4]. Kognitiv lingvistikada grounding nazariyasini ikki turga bo'lib tahlil qilinadi: nominal va gap groundingi. Nominal va gap groundingining asosiy xususiyati shundaki, u nafaqat ko'rib chiqilayotgan holat yoki so'roqdagi jarayon turini ko'rsatibgina qolmay, balki ushbu misolning ayni groundingga mos kelish holatini ko'rsatadi. Nominal grounding nazariyasi kognitiv grammatika nazariyasida muhim o'rin tutadi va u nominal birliklarni, ya'ni ot va ot birikmalarini, nutq vaziyatiga yoki kontekstga biriktirish jarayonini ifodalaydi. Bu tushuncha orqali otlar aniq bir vaziyatga bog'lanadi, ularga ma'lum bir ma'no va aniqlik beriladi.

Ingliz tilidagi nominal groundingni hosil qiluvchi birliklarga Langaker ko'rsatish olmoshlarini (this, that, these, those), artikllarni (a, the, zero) va ba'zi miqdor olmoshlarini (all, most, some, no, any, every, each) kiritadi [Langaker 2002: 20].

Agromatnlar tarkibida nominal groundingni asoslovchi bir qancha vositalar mavjud bo'lib, bunda ingliz tilidagi artiklni misol qilib keltirish mumkin: 1) In the chelation process, a metal ion connects with two or more coordination atoms (non-metal) in the same molecule through a coordination bond to form a heterocyclic (chelate ring) structure containing metal ions (Fig. 6) (Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100552:4)

Berilgan ingliz tilidagi misoldagi (1) “a” artikli muallif tomonidan birinchi marotaba ishlatilgan bo'lib, matnda o'quvchining diqqatiga uni yakka holatdaligini anglatish bilan birgalikda birinchi marotaba, ya'ni tajribaning dastlabki bosqichida ekanligini bildirish uchun qo'llanilmoqda, shu holatda “a” artikli nominal groundingni matn tarkibidagi ko'rsatuvchisi bo'lib ishtirok etgan: 2) Currently, heavy metals and organic dyes are the main pollutants.

..... As for the organic dyes, less than 1 ppm of dyes could affect the gas solubility and transparency of water bodies [3]. (Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100552:1)

Keltirilgan misolda (2) esa muallif o'quvchi uchun avvalroq tanishtirib o'tilgan ma'lumotdagi o'tni matnning keyingi o'rinlarida eslatishga va o'quvchini o'sha ma'lumot doirasiga olib kelishga harakat qilgan. Bu jarayonda muallif ma'lumotlarning bir tizimda davom etayotganligini eslatish maqsadida “the organic dyes” deb tushuntiradi, ya'ni bu avvalroq tajribaning boshida eslatilgan “organic dyes” ga eslatma ekanligini bildirib uni anafolik holatda ishlatilishini ta'minlagan. Bundan tashqari, “the” artiklining qo'llanilishi o'quvchining ilmiy matn ichidagi holatlarining bir-biridan farqli holatlarida yoki aynan o'sha holat bo'yicha tizimlilikka diqqat e'tiborini tavsiflaydi.

Aniq artikllarning matndagi deytik vazifalarini o'rgangan Epshteynning fikriga ko'ra, ular tomonidan bajariladigan hal qiluvchi vazifa - turli nuqtayi nazardagi diskurs referentlarini bir markazga asoslanishidir [Epshteyn 2002:68].

Ingliz tilidagi adresat va adresantga yaqin masofani bildiruvchi “this” olmoshi agromatnlar tarkibida ko'pincha muallifga yaqin bo'lgan masofani emas, balki yaqinda o'zi bergan ma'lumotga ishorani ta'minlashini ko'rsatadi: 3) PCR-RAPD is also a fast, specific and simple procedure and makes it possible to reveal genetic variability without previous knowledge of the sequence of the tested DNA. In addition, this method avoids the requirement of more complex analytical steps such as DNA restriction, sequencing, or hybridization [35]. (Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100586 2)

Yuqorida berilgan misolda (3) muallif o'zining bergan ma'lumoti yani metod haqida keyingi o'rinlarda eslatish, ko'rsatish vazifasini "this" olmoshiga yuklash orqali fikrini davom ettirmoqda. O'quvchi uchun bunday eslatma ma'lumotlarning bir tekis va ravon uzatilishini ta'minlaydi va uning ma'lumotlar ichida adashmasligiga ko'mak beradi.

"This" olmoshiga qarama-qarshi bo'lgan "that" olmoshi bo'lsa, muallifning fikrlar oqimida avvalgi bildirgan o'rinlariga qaytish jarayonini ham bildiradi:

4) Traditionally, the assessment of tea quality is carried out by highly trained people using an organoleptic method. However, this method requires good physical and psychological health conditions as it relies on the sensitivity of their taste and flavor sensory. That involves with physical verification based upon shape and size of the granules which in turn define the textural features which has significant relationship to the taste and organoleptic properties of tea (Journal of Agriculture and Food Research 6 (2021) 100210: 2)

Xususan, keltirilgan misolda (4) muallifning "this" olmoshidan referensial funktsiya sifatida hozirgina keltirgan ma'lumotiga tayangan holda ishora qilishini ko'rsak, "that" olmoshi esa ushbu gaplardan ham oldinroq kelgan ma'lumotga eslatma ekanligini bildirmoqda, o'quvchi ko'rsatilgan ma'lumotni topishi uchun biroz uzoqroqqa, yuqoriga murojaat qilishi kerakligini bildirmoqda. Agar muallif yaqin masofaga ishora qilganda "this"ni qo'llaganida, bu holda yana bir ko'rsatishga muhtoj bo'lganida ham "this"dan foydalanishi mumkin edi, biroq muallif adresatga uning matndagi biroz yuqoriroqqa e'tibor qaratishini ishora qilib "that"dan foydalangan.

Egalik olmoshlarining deydik xususiyati agromatnlar tarkibida yaqqol ko'rinadi. Bunga sabab esa, ularning ichida muallifning o'ziga ishora qilish imkonini yuqori darajada bo'ladi: 5) Finally, our results showed a significant positive effect of campesterol on fruitiness, which is confirmed by the study of [52], who found that olive oil quality was positively related with a higher campesterol/stigmasterol ratio. (Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100555 11)

Ilmiy matnlarda qabul qilingan holat bu muallifning yakka o'zi butun bir jarayonning bo'lagi sifatida tashkil etilib, uni "I" tarzida ifodalamaslikdir. Shu sababdan ham agromatnlarda muallifning o'ziga ishora qilishda "we" bilan birgalikda "our" ham ko'plab holatlarda uchraydi (5). Bunda muallif o'zining qilgan tadqiqotini avvalgi mavjud fundamental bilimlar asosiga qurganligini ta'kidlash maqsadida "our" olmoshidan foydalangan.

6) Plants provide all energy for maintenance, growth, reproduction, and locomotion of every living organism on our planet. (Crop ecology 33)

Tabiiy fanlarga oid matnlarda insoniyat haqida fikr bildirilgani uchun insonni tabiatning bir bo'lagi sifatida tasvirlab, "we" ekslyuziv shaklda ishlatilishiga ham guvoh bo'lamiz (6). Bunda olim "our planet" birikmasi bilan o'zini hamda o'quvchini bir jamoaga tegishli ekanligini bildirib kelgan. Bu kabi ma'lumotlar ko'pincha ilmiy matnlarning kirish qismlarida joy olsa ham, ekslyuziv "we-our" shakli kam ishlatiladi deyish joiz emas.

Agromatnlar tarkibidagi miqdorga ishora qiluvchi so'zlarning berilishi muallifning berilgan misolga nisbatan munosabatini belgilaydi: 7) Analyses were done of all the samples, in three replicates. (Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100603:2)

Berilgan misolda (7) muallif tadqiqotning butun jarayonida ishlatilgan tahlillarning barchasini "all" bilan belgilab, har birini bir butunga jamlab ko'rsatgan. Biroq agromatnlar tarkibidagi miqdorni bildiruvchi so'zlarga yuqoridagilardan tashqari ingliz tilida "most", "several", "some" kabi olmoshlaridan foydalaniladi: 8) Most programmes are located in some kind of social ministry, administered by professionals with backgrounds in the social sciences, including economists with specialization in the social sectors. (Climate smart agriculture 241) Keltirilgan misolda (8) muallif mavjud dasturlarning ko'pchiligi deya "most programmes" iborasini qo'llab, ulardagi miqdorning o'rtachadan biroz yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Makon deyxsisining agromatnlar tarkibida ingliz va o'zbek tillarida turlicha

ifodalanishini quyidagi misollarda ham kuzatishimiz mumkin: 9) Genetic diversity in farming can be defined at several levels. Here we deal with diversity of species and cultivars. (Crop ecology 81)

Yuqoridagi misolda (9) muallif matnning belgilangan qismiga ishorani ta'minlab, diskurs deysisni amalga oshirgan.

Xulosa. Kognitiv tilshunoslik insonning bilish jarayonidagi til vositalaridan foydalanishdagi faoliyatini o'rganishdan iborat bo'lib, bu jarayonda nutq vaziyati muhim hisoblanadi. Pragmalingvistik tadqiqotlarda o'rganiluvchi deysis hodisasi kognitiv tilshunoslikda grounding nazariyasi asosida dalillangan bo'lin, ingliz tilidagi agromatnlar ham ulaarning ma'no xususiyatlari umumiy berilgan qoidalarga mos kelsa-da, ba'zi holatlarda faqatgina sohaga oid ma'lumotlarni aniq va ravon yetkazish maqsadida graundingdan foydalaniladi. Deyktik belgilar agromatnlarda muallifni, aniqlikni miqdorni belgilar kelib, o'quvchiga aniq ko'rsatmalar va yo'nalish berish uchun qo'llaniladi. Makonni ingliz tilidagi agromatnlarda faqatgina matn doirasida qo'llanishi bilan ahamiyatga molikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brisard F. Grounding: The epistemic footing of deixis and reference. Vol. 21. – Berlin New York: Walter de Gruyter, 2002. – 512 p.

2. Epstein R. Grounding, subjectivity and definite descriptions // Grounding: The epistemic footing of deixis and reference. – Berlin New York: Walter de Gruyter, 2002. – P. 41-82.

3. Epstein R. The definite article, accessibility, and the construction of discourse referents // Grounding: The epistemic footing of deixis and reference. – Berlin New York: Walter de Gruyter, 2002. – P. 333-378.

4. Langacker R.W. Cognitive grammar as a basis for language instruction. Handbook of cognitive linguistics and second language acquisition. – New York: Routledge, 2008. – 36 p.

5. Langacker R.W. Deixis and subjectivity in Grounding // The epistemic footing of deixis and reference. – Berlin, New York: Walter de Gruyter, 2002. – P. 1-28.

6. Ruiz de Mendoza Ibáñez F.J., Peña Cervel S.M. Cognitive linguistics. Internal dynamics and interdisciplinary interaction. – Berlin: Walter de Gruyter, 2005. – 432 p.

7. Violi P. Embodiment at the crossroads between cognition and semiosis. // Recherches en Communication, Volume 19. – Louvain-la-Neuve: UCLouvain, 2003. – P. 199 – 234.

8. Кравченко А.В. Когнитивная лингвистика сегодня: интеграционные процессы и проблема метода // Вопросы когнитивной лингвистики. – Тамбов, 2004. – С. 37-52.